



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No1
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 55 sahifa.
2026-yil yanvar*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT	10
Urinboev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI.....	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abdvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSIYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUROJAATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI BAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовевна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	



AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024- YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI

Karimov Diyorbek

Fan va texnologiyalar universiteti
4-bosqich talabasi

E-mail: diyorkarimov81782024@icloud.com

Ilmiy rahbar:

Abdurashidov Abdusamad

Fan va texnologiyalar universiteti
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0005-7073-3140

E-mail: aabdurashidovvv@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tahliliy maqolada O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarida 2020–2024-yillar kesimida aksiz solig'ining tutgan o'ri va ulushi chuqur tahlil qilingan. Maqolada aksiz solig'i bo'yicha yillik tushumlar hajmi, ularning o'zgarish sur'atlari hamda asosiy tendensiyalari tizimli ravishda o'rganilgan. Tadqiqot natijalari aksiz solig'ini davlat budjetining muhim moliyaviy manbalaridan biri sifatida baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, boshqa soliqlar va bojxona bojlari tushumlarining ham yildan-yilga barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekani aniqlangan. Tahlil jarayonida aksiz solig'ining budjet daromadlaridagi ulushi ayrim davrlarda oshgani, ayrim yillarda esa nisbatan pasaygani kuzatilgan.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, soliqlar, aksiz solig'i, budjet daromadlari, o'sish sur'atlari, bilvosita soliqlar, bevosita soliqlar.

Abstract: This analytical article examines the share and role of excise tax revenues in the state budget revenues of the Republic of Uzbekistan during the period 2020-2024. The study provides a systematic analysis of annual excise tax revenues, their growth rates, and key trends. The findings indicate that excise tax represents one of the significant financial sources of the state budget. At the same time, revenues from other taxes and customs duties have shown a steady year-by-year increase. The analysis reveals that the share of excise tax in total budget revenues increased during certain periods, while in some years it experienced a relative decline.

Key words: state budget, taxes, excise tax, budget revenues, growth rates, indirect taxes, direct taxes.

Аннотация: В данной аналитической статье проведён углублённый анализ доли акцизного налога в доходах государственного бюджета Республики Узбекистан за 2020-2024 годы. В статье системно рассмотрены объёмы ежегодных поступлений по акцизному налогу, темпы их изменения и основные тенденции. Результаты исследования позволяют рассматривать акцизный налог как один из ключевых финансовых источников формирования государственного бюджета. Одновременно выявлено, что поступления по другим налогам и таможенным пошлинам также демонстрируют устойчивую тенденцию роста из года в год. Анализ показал, что доля акцизного налога в структуре бюджетных доходов в отдельные периоды увеличивалась, а в некоторые годы имела тенденцию к снижению.

Ключевые слова: государственный бюджет, налоги, акцизный налог, бюджетные доходы, темпы роста, косвенные налоги, прямые налоги.



KIRISH

Bozor iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, fiskal barqarorlikni ta'minlash hamda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy majburiyatlarini moliyalashtirishda soliq tizimining roli nihoyatda muhimdir. Soliq daromadlari tarkibida aksiz solig'i o'zining fiskal ahamiyati, narxlar barqarorligiga ta'siri hamda ayrim turdagi mahsulotlar iste'molini tartibga solishdagi vositachilik funksiyasi bilan alohida o'rin tutadi. Aksiz solig'i davlat budjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri bo'lib, u nafaqat budjetni to'ldirish, balki iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiy jarayonlarni boshqarish vazifasini ham bajaradi.

O'zbekiston Respublikasida 2020–2024-yillar davomida soliq siyosati bosqichma-bosqich isloh qilinib, aksiz solig'ini unifikatsiya qilish, stavkalarini optimallashtirish hamda soliq bazasini kengaytirish kabi yo'nalishlarda muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Mazkur davr pandemiya, global iqtisodiy beqarorlik, fiskal yuklamalarni qayta taqsimlash va ichki bozorni liberallashtirish jarayonlari bilan ham xarakterlanadi. Shu bois aksiz solig'i tushumlarining dinamikasini o'rganish, uning budjet daromadlari tarkibidagi ulushini baholash hamda o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash bugungi kunda alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tahlilning 2020–2024-yillarni qamrab olishi mazkur soliq turi bo'yicha qisqa, ammo islohotlarga boy davrni kompleks baholash imkonini beradi. Ushbu maqolada aksiz solig'i tushumlarining yillik dinamikasi, ularning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi, o'zgarishlarning asosiy sabab va omillari, shuningdek mazkur sohada samaradorlikni oshirish bo'yicha xulosalar ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiz solig'ini davlat xazinasiga undirish amaliyotining ildizlari Xitoydagi Xan sulolasi hamda Hindistondagi Maurya imperiyasi davriga borib taqaladi. Iste'mol tovarlarini soliqqa tortishning nazariy asoslari esa A. Smitning "Xalqlar boyligi" asarida o'z aksini topgan.

A. Smit aksiz solig'ini tabiiy ish haqi darajasini oshirmagan holda davlat budjeti uchun daromad keltira oladigan neytral soliq turi sifatida ilgari surgan. Bunday yondashuvning asosiy sharti shundan iboratki, agar aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar (masalan, alkogol mahsulotlari, tamaki, zargarlik buyumlari, shakar, neft mahsulotlari va boshqalar) narxi haddan tashqari yuqori bo'lib ketsa, iste'molchilar ularni xarid qilishni kamaytirishi mumkin. Chunki bunday tovarlar birlamchi ehtiyoj tovarlari hisoblanmaydi.

Delipalla 2009-yilda aksiz solig'ini bilvosita soliqlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida tavsiflaydi. 1976-yildagi Aksiz to'g'risidagi qonunning 6-bo'limiga ko'ra, import qilinadigan tovarlarga solinadigan aksiz solig'i mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga ham tatbiq etiladi. Ushbu soliq iste'mol tuzilmasini o'zgartirish yoki ijtimoiy muhandislik (social engineering) jarayonlarini shakllantirish mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi. Aksiz to'g'risidagi qonunga muvofiq majburiy aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar qatoriga alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, sigaretalar, to'rt g'ildirakli va ko'p maqsadli avtomobillar hamda o'yin kartalari kiradi.

Giles va Tedds 2002-yilda kontrabandani soliq organlariga to'lanishi lozim bo'lgan soliqlardan qochish maqsadida amalga oshiriladigan barcha qonuniy yoki noqonuniy, bozor yoki bozordan tashqari operatsiyalar sifatida ta'riflaydi. Bilvosita soliqlardan bo'yin tovlash ko'pincha kontrabanda bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa bojxona bojlari bilan bog'liq huquqbuzarliklarda yaqqol namoyon bo'ladi. Kontrabanda jinoyatlari nafaqat pul tushumlariga, balki embargo, mahsulot sifati va kvotalar kabi nomoliyaviy ko'rsatkichlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Haiva See 2011-yilda soliq to'lashdan bo'yin tovlashda (qasddan yoki qasdsiz) ishtirok etuvchi kompaniyalar va jismoniy shaxslar duch keladigan qiyinchiliklar tufayli yuzaga keladigan nomuvofiqlik (non-compliance) masalalarini tadqiq qilgan. Shu bois, ushbu tadqiqot aksiz solig'i bo'yicha soliq to'lovchi sifatida import qiluvchilar orasida soliq majburiyatlariga rioya qilmaslik holatlari va ularning omillariga e'tibor qaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada qiyosiy tahlil, shuningdek induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan. Qiyosiy tahlil usuli orqali aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarni soliqqa tortishni samarali boshqarishda innovatsion va ijodiy yondashuvlarning amaliy ahamiyati yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari yordamida umumiy nazariy qoidalar asosida aniq xulosalar shakllantirilib, alohida kuzatishlar asosida umumlashtirilgan baholar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiz solig'i iqtisodiy transformatsiya davrlarida joriy etilishi mumkin bo'lgan asosiy soliqlardan biri hisoblanadi, chunki uni joriy etish va ma'muriy jihatdan boshqarish davlat uchun katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Tarixan aksiz soliqlari iste'molchilardan emas, balki ishlab chiqaruvchilardan undirilgan va ishlab chiqarish joyida



yig'ilgan. Bundan tashqari, ushbu soliq ko'pincha mahsulot birligiga nisbatan qat'iy (belgilangan) stavkada belgilanadi, bu esa soliq ma'murchiligini soddalashtiradi. Shuningdek, soliqqa tortiladigan tovar turlari chuqur o'rganilib, to'g'ri joriy etilgan taqdirda, ma'muriy xarajatlarga nisbatan olinadigan tushumlar sezilarli darajada yuqori bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ro'yxati tamaki mahsulotlari, alkogolli ichimliklar va neft mahsulotlari bilan cheklanadi. Ushbu tovarlar yuqori daromad keltiradi, ishlab chiqaruvchilar soni nisbatan kam bo'ladi va aniq belgilangan toifalarga kiradi. Biroq aksiz solig'i stavkalari haddan tashqari yuqori belgilanmasligi lozim. O'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarda yuqori aksiz stavkalari kontrabandaning keskin kuchayishiga olib kelishi mumkin. Chunki yuqori aksiz solig'iga tortilgan mahalliy mahsulotlar qo'shni davlatlarda pastroq stavkalarda soliqqa tortilishi natijasida kontrabanda mahsulotlariga bo'lgan talab ortadi. Shuningdek, ushbu soliq qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash zanjirining dastlabki bosqichlarida undirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aksiz solig'ini import vaqtida yoki ishlab chiqarish jarayonida (mahsulot realizatsiyaga chiqarilganda) undirish tavsiya etiladi.

Ko'pgina mamlakatlarda aksiz solig'i talab va taklifni tartibga solish vositasi sifatida qo'llaniladi. Muayyan turdagi tovarlarga aksiz solig'ining joriy etilishi ushbu tovarlarga bo'lgan talabni kamaytiradi, bu esa ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmasligi birlik mahsulot tannarxining oshishiga sabab bo'lib, natijada tovar narxining asossiz ravishda qimmatlashishiga olib keladi.

Boshqa tomondan, aksiz soliqlarining nazariy asoslari budjet daromadlarini oshirish bilan birga, ayrim zararli yoki birlamchi ehtiyojga kirmaydigan tovarlar iste'molini cheklash orqali ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgandir. Masalan, alkogol va tamaki mahsulotlariga solinadigan aksiz soliqlari ularning haddan tashqari iste'mol qilinishining oldini olishga xizmat qiladi hamda aholi salomatligini muhofaza qilishga hissa qo'shadi. Xuddi shuningdek, yoqilg'i mahsulotlariga solinadigan aksiz soliqlari jamoat transportidan foydalanishni rag'batlantiradi hamda muqobil energiya manbalarida ishlovchi transport vositalariga o'tishni tezlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida joriy etilib, fiskal siyosatning muhim vositalaridan biri sifatida shakllangan. Amaldagi soliq tizimiga muvofiq, aksiz solig'i budjetga undiriladigan bilvosita soliq bo'lib, u tovarlar narxi tarkibiga kiritiladi hamda qo'shilgan qiymat solig'i bazasining shakllanishida ishtirok etadi va sof daromadning muayyan qismini tashkil etadi. Aksiz solig'i ayrim jihatlari bilan qo'shilgan qiymat solig'iga o'xshash bo'lsa-da, o'zining aniq yo'naltirilganligi hamda muayyan turdagi tovarlar bilan bevosita bog'liqligi bilan undan farqlanadi.


1-jadval. Yillar kesimida aksiz solig'i tushumlari dinamikasi

Yillar	2020	2021	2022	2023	2024
Tushumlar (million so'mda)	11,697.3	13,086.5	13,455	15,834	19,060
Soliqli tushumlardagi ulushi foizda	13.4%	11.88%	12.82%	17.68%	18.71%
Davlat budjetidagi ulushi	9.03%	8.89%	6.67%	6.83%	6.85%

Agar 2020–2024-yillar davomida jami soliq tushumlari bo'yicha ma'lumotlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2020-yil yakuniga ko'ra davlat budjeti daromadlari 132 938 mlrd so'mni tashkil etgan. 2019-yil ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda, daromadlar 20 774 mlrd so'mga yoki 18,5 foizga oshgan. 2021-yil yakuniga kelib budjet daromadlari 164 799,4 mlrd so'mga yetib, prognoz ko'rsatkichidan 17 111,2 mlrd so'mga yoki 111,5 foizga yuqori bo'lgan hamda 2020-yilga nisbatan 31 861,3 mlrd so'mga oshgan.

2022-yilda aksiz solig'i tushumlari 2021-yilga nisbatan oshgan bo'lsa-da, 2023-yilda ularning o'sish sur'atlarining pasaygani kuzatiladi. Buning asosiy sabablari sifatida AI-80 markali benzin bo'yicha aksiz solig'i stavkasining 2023-yil oxirigacha nol darajaga tushirilgani, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlari realizatsiyasi hajmining qisqarishini ko'rsatish mumkin.


Quyidagi diagrammada jami soliq tushumlari tarkibida aksiz solig'ining ulushiga alohida e'tibor qaratiladi.



1-rasm. 2020–2024-yillarda aksiz solig'i tushumlari (mlrd so'm) va ularning jami soliq tushumlaridagi ulushi

2020-yilda aksiz solig'i davlat budjeti daromadlarining 11 697,0 mlrd so'mini tashkil qilgan. 2021-yilda ushbu miqdor avvalgi yilga nisbatan 1 389,2 mlrd so'mga oshib, 13 086,0 mlrd so'mga yetgan. 2022-yilda aksiz solig'i tushumlari davlat xazinasiga 13 455,0 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2023-yilda aksiz solig'i tushumlari avvalgi yilga nisbatan 2 379,0 mlrd so'mga oshib, jami 15 834,0 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2024-yilda esa davlat budjeti tomonidan olinadigan aksiz solig'i tushumlari 19 060,0 mlrd so'mga yetib, bu avvalgi yilga nisbatan 3 226,0 mlrd so'mga ko'paygan.

Ushbu raqamlarni foiz ko'rinishida baholaganda, aksiz solig'i jami soliq tushumlarining 2020-yilda 8,7 foizini, 2021-yilda 7,4 foizini, 2022-yilda 6,6 foizini, 2023-yilda 6,8 foizini va 2024-yilda 9,55 foizini tashkil etganini ko'rish mumkin. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, aksiz solig'i tushumlarida budjet tarkibida barqaror oshish yoki kamayish tendensiyasi kuzatilmaydi. Buning sababi aksiz solig'i ma'muriyatida amalga oshirilayotgan o'zgarishlardir.



2-rasm. 2020–2024-yillarda aksiz solig'ining bilvosita soliqlar tarkibidagi ulushi (mlrd so'mda)

2020-yilda aksiz solig'i ma'muriyatida ayrim o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, koronavirus pandemiyasi sababli 2020-yil 1-apreldan boshlab alkogolli mahsulotlar, sigaretalar, benzin, dizel yoqilg'i va oxirgi iste'molchiga sotiladigan gaz bo'yicha aksiz solig'i stavkalari indekslanmadi. Shuningdek, 2020-yil 1-avgustdan boshlab avtomobillar importiga aksiz solig'i bekor qilindi.



2021-yilda aksiz solig'i tushumlari 2020-yilga nisbatan 1 389,2 mlrd so'mga yoki 11,9 foizga oshib, 13 086,5 mlrd so'mga yetdi. Tushumlarning oshishiga asosan 2021-yil fevral va oktabr oylarida alkogol, tamaki, neft mahsulotlari hamda pivo bo'yicha soliq stavkalarining o'rtacha 15 foizga indekslanishi sabab bo'ldi. Shunga qaramay, alkogolli mahsulotlardan tushgan aksiz solig'i tushumlari 2020-yildagi darajada qolgan.

2022-yilda aksiz solig'i tushumlari 2021-yilga nisbatan 368,5 mlrd so'mga yoki 2,8 foizga oshib, 13 455,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu davrda aksiz tushumlariga ta'sir qilgan asosiy omillarga 2022-yil 1-iyundan alkogol va tamaki mahsulotlari bo'yicha absolyut aksiz stavkalarining o'rtacha 10 foizga oshirilishi, suyultirilgan gaz ishlab chiqaruvchilariga aksiz solig'ining bekor qilinishi, mobil aloqa xizmatlari bo'yicha aksiz stavkasining 15 foizdan 10 foizga kamaytirilishi, shuningdek polietilen granullari (shu jumladan import) bo'yicha aksiz stavkalarining 20 foizdan 10 foizga tushirilishi kiradi.

2023-yilda aksiz solig'i tushumlariga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatdi. Xususan, 2023-yil 1-yanvardan oziq-ovqat xom ashyosidan olingan tozalangan etil spirt, efir-aldegid fraksiyasidan olingan texnik tozalangan etil spirt hamda asosiy fraksiyadan olingan etil spirt bo'yicha aksiz stavkalari besh baravar oshirildi. Alkogol va tamaki mahsulotlari importiga aksiz stavkalari esa 5 foizga kamaytirildi. Alkogol ishlab chiqarishda aksiz stavkalari etil spirt ulushi asosida belgilandi. Shuningdek, 2023-yil 1-fevraldan boshlab alkogol, tamaki, benzin, dizel yoqilg'i va gaz ishlab chiqarish bo'yicha aksiz stavkalari 10 foizga indekslandi.

2024-yilda aksiz solig'i stavkalarini uch bosqichda indekslash rejalashtirildi. Jumladan, 2024-yil 1-yanvardan tamaki mahsulotlarini (sigaretalar, hookah tamaki, chekish tamaki, truba tamaki va boshqalar) ishlab chiqarish bo'yicha aksiz stavkalari 12 foizga oshirildi. Oziq-ovqat xom ashyosidan olingan tozalangan etil spirt, efir-aldegid fraksiyasidan olingan texnik tozalangan etil spirt hamda asosiy fraksiyadan olingan etil spirt bo'yicha stavkalar ikki baravar oshirildi. Shu bilan birga, alkogol mahsulotlari, import qilingan filtrlangan va filtrlanmagan sigaretalar, papirosalar, sigaralar, bidi va kretek mahsulotlari bo'yicha aksiz stavkalari 5 foizga kamaytirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Garchi aksiz solig'i davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri bo'lsa-da, hozirgi kunda soliq to'lovchilarni aniqlash, soliq stavkalarini qo'llash hamda soliqlarni undirish jarayonlari bilan bog'liq bir qator amaliy muammolar mavjud.

Soliq kodeksining 289-moddasiga muvofiq, isitiladigan tamaki tayoqlari uchun aksiz solig'i stavkasi 341 000 so'm/kg miqdorida, ya'ni 2024-yil holatiga belgilangan. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Tamaki nazorati bo'yicha Ramka konvensiyasining tegishli qarorlariga ko'ra, isitiladigan tamaki mahsulotlari tamaki mahsulotlari sifatida tasniflanadi. Shunga ko'ra, tamaki mahsulotlariga nisbatan qo'llaniladigan barcha cheklovlar isitiladigan tamaki mahsulotlariga ham tatbiq etiladi.

Isitiladigan tamaki mahsulotlari aerosollarni hosil qiladi, ular foydalanuvchi tomonidan tamaki isitish tizimi orqali og'iz orqali inhalatsiya qilinadi. Bundan tashqari, mazkur qurilmalar oddiy sigaretani chekishga xos bo'lgan harakatlarni takrorlaydi, ayrim hollarda esa isitiladigan tamaki uchun maxsus ishlab chiqilgan sigaretalardan foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda VUSE brendli elektron sigaretalar uchun aksiz solig'i hisobini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mahsulotning chakana narxi 65 000 so'mni tashkil etadi, undagi aksiz solig'i esa ($605 \text{ so'm} \times 2 \text{ ml} = 1\,210 \text{ so'm}$) chakana narxning 1,9 foiziga teng.

Agar nikotin tarkibli suyuqliklar uchun aksiz solig'i stavkasi ikki baravar oshirilsa, VUSE brendli elektron sigaretalar narxi 66 300 so'mga yetadi, ya'ni 1 300 so'mga yoki 2 foizga oshadi. Bunda aksiz solig'i miqdori ($1\,210 \text{ so'm} \times 2 \text{ ml} = 2\,420 \text{ so'm}$) chakana narxning 3,6 foizini tashkil etadi.

Shunday qilib, mazkur turdagi mahsulotlar uchun aksiz solig'i stavkasini ikki baravar oshirish davlat budjeti uchun qo'shimcha soliq tushumlarini ta'minlaydi.

Alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari hamda ushbu hajmlarga hisoblangan aksiz solig'i tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim alkogol ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan don distillati realizatsiya qilingan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, don distillatlariga aksiz solig'i tatbiq etilmaydi. Biroq texnologik nuqtai nazardan, ham rektifikatsiya, ham distillatsiya usullari yakunda etil spirtini ishlab chiqarishga olib keladi.

Qonunchilikka ko'ra, aksiz mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari va sotuvchilarida o'tkaziladigan maydoncha soliq tekshiruvlari oldindan xabardor qilingan holda amalga oshirilishi lozim. Mazkur tekshiruvlar davomida quyidagilar nazorat qilinadi:

- alkogol va tamaki mahsulotlarini sotish hamda yorliqlash qoidalariga rioya etilishi, shuningdek tegishli ruxsatnomalar yoki litsenziyalarning mavjudligi;
- omborlarda saqlanayotgan, foydalanilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qonuniy kelib chiqishini tasdiqlovchi hujjatlar.

Korxonalarda maydoncha soliq tekshiruvlarini oldindan xabardor qilgan holda o'tkazish amaliyoti nazorat jarayonlarini yanada takomillashtirish, tovarlarning kelib chiqishini aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish hamda



soliq ma'muriyati samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Yuqoridagi tahlil va xulosalarga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Isitiladigan tamaki tayoqlari uchun aksiz solig'i stavkalarini sigaretalar, papirosalar, sigarillos (sigar), bidi va kretek mahsulotlariga belgilangan aksiz solig'i stavkalari bilan moslashtirish.

2. Alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkalarini belgilash jarayonida don distillatlari va rektifikatsiyalangan etil spirtini ham aksiz solig'iga tortiladigan ichimlik turlari qatoriga kiritish.

3. Etil spirt, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi hamda sotuvchi korxonalarda oldindan xabardor qilmasdan maydoncha soliq tekshiruvlarini o'tkazish orqali qonunbuzarliklarni aniqlash va kelgusida aksiz solig'i ma'muriyatini yanada takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti. <https://www.imv.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti. <https://www.soliq.uz>
4. Toshmatov, Sh. A. (2017). Directions for expanding the sources of state budget revenues in the development and liberalization of the economy. // Priority Directions in the Development of the Financial Sector in Uzbekistan. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent: TDIU, 27–28-betlar.
5. Balabanov, I. T. (2020). Fiscal Policy: Theory and Practice. Moskva: Ekonomika.
6. Laffer, A. (2023). Modern Tax Theory and Policy. Heritage Foundation.
7. Stiglitz, J. E. (2019). Taxation and inequality in modern economies. Journal of Public Economics, 14(2), 45–58-betlar.
8. Karimova, S. (2024). The role of virtual ecosystems in improving e-commerce platforms. Digital Economy and Information Technologies, 4(4), 26–33-betlar.
9. Makhmanazarovna, R. M. (2021). The importance of a synergy approach to teaching econometrics in the context of the economy. International Conference on Multidisciplinary Research and Innovative Technologies, 2-jild, 5–7-betlar.
10. Ravshanova, M. M. (2024). The importance of pedagogical experiments in developing students' econometric skills. Economics and Society, 3–1(118), 836–839-betlar.
11. Karimova, S., & Sodiqova, D. (2025). Development trends of electronic commerce and its infrastructure in Uzbekistan. Digital Economy and Information Technologies, 5(1), 131–140-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>